


KIMYO FANINI O`QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING O`RNI



Qambarov Abduvohid Abdumurotovich

*Jizzax viloyati Zafarobod tumani 6-umumiy
o`rta ta`lim maktabi kimyo fani o`qituvchisi*

Annatotsiya: Ushbu maqolada o`quvchilarning kimyo faniga bo`lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlarning o`rni va o`qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`z: pedagog, o`qish, bilim, tarbiya, metod, fikr, ta`lim, ijtimoiy.

«Pedagogik texnologiya» iborasi birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamote tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha- pedagogik texnologiya (o`qitish texnologiyasi) o`qitishning maqbulligini ta`minlovchi yo`l-yo`riqlar tizimi bilan bog`liq bilimlar sohasidir. Professor N.F.Talizina pedagogik texnologiyani belgilangan o`quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat,-deb hisoblaydi. Professor N.Saydahmedovning aytishicha pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo`lgan ma`lum pedagogik tizimning loyihasi. Professor M.Ochilovning yozishicha pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta`lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob`ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o`zaro ta`sirini inobatga olib o`zlashtirish jarayonlarida qo`llaniladigan metodlar va usullar majmuidir. Bu tushunchaga YuNESKO tomonidan quyidagicha ta`rif berilgan: pedagogik texnologiya- bu ta`lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o`zaro ta`sirini inobatga olib, o`qitish va bilim o`zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish, uni qo`llashning tizimli (loyihalashtirilgan) metodi (usuli)dir. Pedagogik texnologiya ta`lim-tarbiyadan ko`zlangan maqsadga erishish uchun o`quv jarayonida qo`llaniladigan usullar, vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiya eskimi, yangimi qadimdan mavjud. Biroq jamiyat taraqqiy etgan sari maorif oldiga o`zining yangidan-yangi ijtimoiy buyurtmalarini qo`yib borganligi tufayli, ta`lim-tarbiya jarayoni ham zamonaviy ilg`or metodlar, usullar bilan boyib, yangilanib boradi Ta`lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o`qituvchi, ham o`quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo`ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya`ni texnologiyaga bog`liq. O`qituvchi va o`quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o`qituvchi o`quvchilarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitiga qarab ishlataladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma

material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchilarga bog'liq. Ta'lif jarayonida o'rgatuvchi va o'rjanuvchilar hissasining nisbati insoniyat taraqqiyotining (tsivilizatsiyaning) turli davrlarida turlicha bo'lgan. Bir vaqtlar ta'lif beruvchilar yetakchi bo'lgan bo'lsa, ma'lum davrlarda ta'lif oluvchilar tashabbuskor bo'lishgan va bunday faolliklarning ijobjiy va salbiy jihatlari tadqiq etilgan. Keyingi o'n yilliklarda ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan ta'lif texnologiyalari jadallik bilan rivojlanmoqda va ommalashmoqda. Pedagoglar bunday ta'lif texnologiyalarini «hamkorlik pedagogikasi» deb atashmoqda. Bunday hamkorlikka asoslangan ta'lif texnologiyalari AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilib, yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Bunday ta'lif texnologiyalaridan biri interfaol o'qitish metodlariga asoslangan. «Inter» so'zi lotincha bo'lib, o'zbekcha «oraliq», «o'rtasi», «o'zaro» kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, interfaol ta'lif texnologiyalari ta'lif beruvchi bilan ta'lif oluvchi o'rtasidagi o'zaro faollikka asoslangan hamkorlik ekan. Tabiiyki interfaol ta'lif texnologiyalari ta'lif tizimidagi o'zaro faol usullar (metodlar)dan tarkib topadi. Shunday texnologiyalardan biri **Bumerang Texnologiyası**dir. Otilgan buyumning otuvchiga qaytib kelishini ta'minlovchi o'roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta'limda bumerang metodining ma'nosi pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan holda o'qituvchiga og'zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1.Darsda o'rganiladigan mavzu Anorganik birikmalarning asosiy sinflarining rejasida 4 ta mavzucha bo'lib, sinfdagi o'quvchilar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi mavzucha Oksidlar o'qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh o'quvchilarining har biriga taqdim etiladi. Shu tariqa rejadagi Asoslar, Kislotalar va Tuzlar mavzuchalari ham javoblari bilan birgalikda o'ziga mos nomerdagagi guruhlarning o'quvchilariga tarqatiladi. Har bir guruhdagi o'quvchilar o'zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta mavzuchani o'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o'rganib chiqishadilar.

2.Shundan keyin 4 guruh o'quvchilar aralashtirilib, Yangi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarning har birida dastlabki 4 guruhlarning barchasidan bir nechtadan o'quvchilarning ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o'quv materialini yaxlit jamoa bo'lib o'rganish imkoniyati tug'iladi. Muhimi, o'quvchilarda o'quv materialini mustaqil o'rganish, hamkorlikda ishlash,bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

3. O'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo'lib o'rganish yakunlangach, o'quvchilar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O'qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o'zlari tanlagan bir o'quvchi

sheriklarining to‘plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o‘qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o‘tkaziladi. Bunda qo‘yilgan savolga to‘g‘ri javob bergan talaba-o‘quvchiga 3 ball, to‘g‘ri qo‘shimcha qilganga 2 ball, to‘g‘ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo‘yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo‘yicha o‘zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To‘g‘ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo‘shilib, boshqalarga 0 ball qo‘yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o‘zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo‘shib qo‘yiladi.

5. Endi har bir o‘quvchining baholash uchun ularga mavzu bo‘yicha oldindan tayyorlangan test tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa o‘quvchilari tayyor javoblar asosida tekshirib, o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo‘yicha ball qo‘yiladi.

6.Dars o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va o‘quvchilarga to‘plangan ballar e’lon qilinib, rag‘batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo‘ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi. Guruh o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, o‘quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog‘liq ravishda dars vaqtida yetishmovchilik kutilsa, to‘rtinchı bosqichni o‘tkazmaslik mumkin. Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi, o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arziulov A.U. Interfaol usullar. -Samarqand, 2003.
2. Ilg‘or pedagogik texnologiya nima va uni qanday qilib o‘quv jarayonida qo‘llash mumkin. -Ma’rifat nuri gazetasi, 20 sentyabr 2007 yil.
3. Google.com